



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **O‘ZBEKISTONNING AHBOROTLASHGAN JAMIYAT SARI TARAQQIYOTI: FALSAFIY VA STRATEGIK TAHLIL**

**Raxmatullayev Alimjon Riskulovich**

Angren universiteti, dotsent

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekistonda axborotlashuv jarayonining shakllanishi, bosqichlari va uning falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborotlashgan jamiyatni barpo etishning nazariy asoslari, milliy va global yondashuvlar o‘zaro solishtirilgan. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida jamiyatni raqamlashtirish jarayonining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini ochib beriladi. Axborot madaniyati, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot va shaxs erkinligi masalalari falsafiy nuqtai nazardan yoritiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda axborotlashuv jarayonining izchil rivojlanayotganligini hamda uning milliy modelini shakllantirish istiqbollari ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** axborotlashuv, raqamli transformatsiya, axborot jamiyati, axborot madaniyati, raqamli iqtisodiyot, axborot xavfsizligi, tarmoq jamiyati, kommunikativ ratsionallik, raqamli suverenitet.

## **РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА НА ПУТИ К ИНФОРМАЦИОННОМУ ОБЩЕСТВУ: ФИЛОСОФСКИЙ И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ**

**Рахматуллаев Алимжон Рискулович**

Ангренский университет, доцент

### **Аннотация**

В данной статье анализируются процессы информатизации в Узбекистане, их этапы развития и философская сущность. В исследовании рассматриваются теоретические основы формирования информационного общества, а также проводится сопоставление национальных и глобальных подходов. Особое внимание уделяется стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и её влиянию на социальные, экономические и культурные преобразования. Освещаются вопросы информационной культуры, информационной безопасности, цифровой экономики и свободы личности с философской точки зрения. Результаты исследования показывают последовательное развитие процессов информатизации в Узбекистане и перспективы формирования национальной модели информационного общества.

**Ключевые слова:** информатизация, цифровая трансформация, информационное общество, информационная культура, цифровая экономика, информационная безопасность, сетевое общество, коммуникативная рациональность, цифровой суверенитет.

## **UZBEKISTAN’S DEVELOPMENT TOWARDS AN INFORMATION SOCIETY: PHILOSOPHICAL AND STRATEGIC ANALYSIS**

**Rakhmatullayev Alimjon Riskulovich**

Angren University, Associate Professor

### **Abstract**

This article examines the process of informatization in Uzbekistan, its developmental stages, and its philosophical foundations. The study explores the theoretical basis for building an

information society and compares national and global approaches. Particular attention is given to the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy and its impact on social, economic, and cultural transformations. The issues of information culture, information security, digital economy, and individual freedom are analyzed from a philosophical perspective. The findings indicate that the informatization process in Uzbekistan is developing consistently and highlight the prospects for establishing a national model of the information society.

**Keywords:** informatization, digital transformation, information society, information culture, digital economy, information security, network society, communicative rationality, digital sovereignty.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi taraqqiyot yo‘lida axborotlashgan jamiyatni shakllantirish g‘oyasi bosqichma-bosqich strategik ustuvor yo‘nalishga aylandi. Buning asosiy sababi shundaki, iqtisodiy modernizatsiya, ijtimoiy islohotlar, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida axborotning ochiqligi hamda axborot resurslaridan samarali foydalanish jamiyat faolligining muhim omili sifatida talqin qilindi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov axborot erkinligi va unga bo‘lgan ehtiyojni milliy rivojlanishning ajralmas sharti sifatida baholab, axborotga egalik qilishni kuch-qudrat manbai sifatida e‘tirof etgan edi. Ushbu yondashuv axborotning jamiyatdagi o‘rni — rivojlanish omili, ijtimoiy dinamikaning asosiy drayveri ekanligini falsafiy jihatdan asoslab beradi [1: 79]. Shu tariqa, O‘zbekistonda axborotlashuv jarayoni faqat texnologik yangilanish emas, balki ma‘naviy yangilanish va milliy o‘zlikni anglash bilan chambarchas bog‘langan ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida shakllandi. Mazkur jarayonni o‘rganishda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar — Marshall McLuhan, Niklas Luhmann, Manuel Castells kabi olimlarning konsepsiyalari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [2: 133].

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonning axborotlashuv strategiyasini tahlil qilishda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Xususan, axborotlashuv fenomenining ijtimoiy-madaniy mohiyatini ochib berishda falsafiy-tahliliy metod, milliy axborot makonining taraqqiyot bosqichlarini davrlashtirishda tarixiy-mantiqiy yondashuv asosiy o‘rin tutdi. Shuningdek, milliy tadqiqotchilar g‘oyalarini global tarmoq nazariyalari (M. Castells, Y. Habermas) bilan qiyoslashda komparativ metoddan, raqamli transformatsiyani yaxlit ijtimoiy hodisa sifatida baholashda esa sistemaviy yondashuvdan foydalanildi. Ushbu metodlar majmuasi mavzuni nazariy va amaliy jihatdan xolis va chuqur tahlil etish imkonini berdi. Mahalliy olimlardan R. Abdullayev axborot madaniyatini jamiyat rivojlanishining sifat ko‘rsatkichi sifatida baholab, inson muvaffaqiyatini axborotni qabul qilish, qayta ishlash va qaror qabul qilish kompetensiyasi bilan bog‘laydi [3: 223].

A. Erkaev esa axborot oqimining ortishi insonning vaqt va makon haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirib, idrokni tezlik, fragmentarlik va ramziylikka moslashtirayotganini ta’kidlaydi. Ushbu qarashlar Manuel Castellsning tarmoq jamiyati konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi [4: 173].

#### **Tadqiqot natijasi**

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda axborotlashuv jarayoni davlat siyosati darajasiga chiqdi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamlashtirishning nafaqat texnik, balki falsafiy asoslarini ham belgilab berdi. Strategiya jamiyatni quyidagi yo‘nalishlarda o‘zgartirishni ko‘zlaydi:

1. axborotning ochiqligi va jamoatchilik nazorati;
2. shaxsning axborotdan foydalanish huquqining kafolatlanishi;
3. raqamli iqtisodiyot orqali ijtimoiy adolatni ta’minlash;
4. axborot xavfsizligini milliy xavfsizlikning asosiy elementi sifatida belgilash.

Mazkur strategiya falsafiy jihatdan kommunikativ harakat nazariyasi (Habermas) va tarmoq nazariyasi (Castells) bilan uyg‘unlashadi. Chunki u ochiqlik, ishtirokchilik, interaktivlik va tarmoq aloqalari asosida jamiyatni qayta tashkil etish g‘oyasini ilgari suradi. Muallif sifatida

ta'kidlashimiz lozimki, O'zbekistonda raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, quyidagi falsafiy jihatlar hali to'liq ishlanmagan: masalan, axborot etikasi — shaxs ma'lumotlarini himoyalash masalasi kuchli nazariy asos talab qiladi; axborot tengsizligi — viloyat va markaz o'rtasidagi raqamli tafovut mavjud; axborot madaniyati — jamiyatning barcha qatlamlari axborotni tanqidiy tahlil qilishga tayyor emas; shaxs erkinligi — raqamli nazorat va shaxsning raqamli izlari masalasi chuqur falsafiy muhokama talab qiladi.

Shunga qaramay, quyidagini qo'llab-quvvatlash mumkin: O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni modernizatsiyaning tabiiy va zarur bosqichi bo'lib, axborotlashgan jamiyatning milliy modelini yaratish imkonini bermoqda.

O'zbekistonda axborot makonining shakllanishi mustaqillikning dastlabki yillarida boshlangan bo'lib, uning falsafiy mohiyatini tushuntirish uchun uch asosiy bosqichni ajratish mumkin:

1. 1991–2000-yillar — axborot mustaqilligining shakllanishi;
2. 2000–2016-yillar — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida modernizatsiya davri;
3. 2016-yildan hozirgacha — raqamli transformatsiya davri (Digital Uzbekistan).

Bu bosqichlar jamiyat ongining transformatsiyasiga, siyosiy hayotning liberallashtirilishiga, iqtisodiyotning ochiqligiga va axborot oqimlarining ijtimoiy hayotdagi roliga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

### **1-bosqich: Axborot mustaqilligining shakllanishi**

1990-yillar O'zbekiston axborot maydoni uchun mafkuraviy qaramlikdan chiqish davri bo'ldi. Bu jarayonning falsafiy mazmuni — axborotning milliy xavfsizlik elementi sifatida talqin etilishidir. Bunda davlat axborot siyosati milliy ongni mustahkamlashga qaratildi. Shu jihatdan, o'sha yillarda chop etilgan falsafiy adabiyotlar axborotning ijtimoiy mohiyatini milliy o'zlikni tiklash kontekstida talqin qilgan. Masalan, A. Rustamov ta'kidlaganidek: “Mafkuraviy mustaqillikning asosi — axborot suverenitetidir. Axborotga egalik qilgan millat o'z taqdirini belgilay oladi” [4: 56]. Bu yondashuv globalizatsiya jarayonlarining kuchayishi bilan O'zbekistonning o'z axborot makonini himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqqan.

### **2-bosqich: AKT modernizatsiyasi**

2000–2016-yillarda O'zbekistonda AKT infratuzilmasi shakllandi. Bu jarayon mobil aloqa, internet xizmatlari, elektron hukumatning dastlabki modullarining joriy etilishi, kommunikativ ijtimoiy institutlarning rivojlanishi bilan kechdi. Bu jarayonga falsafiy yondashuv shundan iborat ediki, jamiyat asta-sekin “industrial modernlik”dan “axborot modernligi”ga o'ta boshladi. D. Bell va A. Tofflerning nazariyalari milliy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

### **3-bosqich: Raqamli transformatsiya davri**

2016-yildan boshlab axborotlashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Endi u davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, huquq-tartibot, madaniyat kabi sohalarning strukturaviy o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bu bosqichning falsafiy talqini shundaki, jamiyat tarmoq paradigmasi asosida qayta shakllanmoqda. M. Castells ta'kidlaganidek: “Tarmoq — jamiyatning yangi morfologiyasidir” [5: 325]. O'zbekistonning “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi aslida ana shu tarmoq morfologiyasini milliy modelga aylantirish jarayonidir.

O'zbekistonning raqamli transformatsiyasi faqat texnologik o'zgarish emas, balki falsafiy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy jarayondir. Bu jarayonni quyidagi yo'nalishlar orqali tahlil qilish mumkin: “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi jamiyatni ratsional-modernizatsion tamoyillar asosida qayta qurishga qaratilgan bo'lib, bu Habermasning kommunikativ ratsionallik nazariyasiga juda yaqin, ya'ni ochiq kommunikatsiya ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezonidir. O'zbekistonning raqamli strategiyasi ham aynan shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli xizmatlarning kengayishi (bank tizimi, elektron to'lovlar, elektron ta'lim, raqamli sog'liqni saqlash) jamiyatning real

tarmoqlarga ajralishini kuchaytirmoqda. Bu jarayon Castellsning jamiyatning “tarmoq identifikatsiyasi”ga oid g‘oyalari bilan uyg‘un.

Raqamli makon har qanday davlat uchun strategik resursdir. O‘zbekistonning raqamli suverenitet konsepsiyasi ma’lumotlar milliy serverlarda saqlanishi, axborotning xorijiy platformalarga qaramligini kamaytirish, axborot xavfsizligi tizimlarini kuchaytirish singari yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Buning falsafiy asosini axborot suvereniteti deb nomlash mumkin. O‘zbekiston falsafiy maktabida axborotlashuv jarayonining ma’naviy oqibatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Sh. Qayumovning “Ma’naviyat va axborot maydoni” asarida shunday fikr ilgari suriladi [6: 92]: “Insonning ma’naviy barkamolligi axborot iste’moli madaniyatiga bevosita bog‘liq”. Bu fikr raqamli madaniyatning etikasini shakllantirish zaruratini ko‘rsatadi. Bizning fikrimizcha, ba’zi hollarda axborot tizimlari joriy etilishi texnik jihatdan tez amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, ularning falsafiy-ijtimoiy asoslari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada jamiyatda:

- axborotga ishonch darajasi pastligi;
- axborot iste’molining tartibsizligi;
- tanqidiy fikrlashning sustligi;
- raqamli madaniyatning bir xillashuvi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, muallif sifatida ta’kidlayman: O‘zbekistonda axborotlashuv jarayoni mintaqada eng izchil rivojlanayotgan modellaridan biridir. Uning afzalliklariga quyidagilar kiradi: davlat siyosatining izchilligi, jamiyatning raqamli texnologiyalarga tez moslashishi, ta’lim tizimining raqamli resurslarga o‘tishi, tarmoq iqtisodiyotining jadal shakllanishi. Bu jarayonlar milliy taraqqiyotning yangi bosqichini — axborotlashgan sivilizatsiya sari o‘tishni anglatadi.

Raqamli iqtisodiyot O‘zbekistonning axborotlashuv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi. Uning falsafiy mazmuni shundaki, iqtisodiy faoliyat endilikda axborot oqimlari, raqamli platformalar, algoritmik boshqaruv, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili orqali tashkil etiladi. Bu jarayon klassik iqtisodiy nazariyalarning chegarasidan chiqib, iqtisodiyotni informatsion paradigmaning tarkibiy qismiga aylantiradi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha shakllanmoqda:

1. elektron to‘lovlar tizimi (Humo, Uzcard, Payme, Click va boshqalar);
2. elektron xizmatlar (MyGov);
3. raqamli bank tizimi;
4. raqamli savdo bozorining kengayishi (marketplacelar);
5. startap ekotizimi rivoji.

Bu jarayonning falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot O‘zbekistonda ijtimoiy jarayonlarning tarmoqlashuvini, shaffofligini va tezkorligini kuchaytiradi.

Masalan, A. Tofflerning fikricha: “Postindustrial jamiyatda iqtisodiy muvaffaqiyatning asosi — axborotni qayta ishlash qobiliyatidir” [7: 245]. O‘zbekiston modelining kuchli tomoni — aynan shu g‘oyaga yaqin: iqtisodiyot aynan ma’lumotlar asosida ishlay boshladi.

Muallif sifatida bizning fikrimizcha, mamlakatda raqamli iqtisodiyotning tez sur‘atlarda joriy qilinishi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, biroq raqamli tengsizlikni kamaytirish bo‘yicha izchil falsafiy yondashuv hali to‘liq shakllanmagan.

Milliy xavfsizlik doirasida axborot falsafasi shundan iboratki, O‘zbekistonning “Kiberxavfsizlik strategiyasi – 2023–2026” hujjati axborot xavfsizligini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda belgilaydi: raqamli makonni himoya qilish, internetdagi tahdidlarga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish, yoshlarni soxta axborotlardan himoya qilish, axborot urushi va gibrid tahdidlarga qarshi immunitet yaratish. Bu jarayonning falsafiy talqini shundan iboratki, axborot xavfsizligi — shaxs erkinligi va jamiyat barqarorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi tamoyildir. Bizning tanqidiy mulohazamiz shundan iboratki, bugungi kunda raqamli davlat qurilishi jarayonida axborot xavfsizligining ayrim jihatlari yetarlicha mukammal emas: ma’lumotlar maxfiyligi bo‘yicha xalqaro standartlar to‘liq joriy etilmagan, internet madaniyati

pastligi sababli ijtimoiy tarmoqlarda soxta axborotlar tez tarqaladi, yoshlar ongida axborot immuniteti yetarli darajada shakllanmagan. Shu bilan birga, milliy strategiyada axborot xavfsizligining falsafiy asoslari (qadriyatlar, ong, ma'naviyat) ko'zda tutilgani e'tiborga molik.

#### **Muhokama (Discussion)**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda axborotlashuv jarayoni nafaqat texnologik, balki chuqur falsafiy mazmunga ega ijtimoiy transformatsiya hisoblanadi. Bu jarayon Jürgen Habermasning kommunikativ ratsionallik nazariyasi hamda Manuel Castellsning tarmoq jamiyati konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi.

Shu bilan birga, bir qator muammolar ham mavjud:

- axborot etikasi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari;
- hududlar o'rtasida raqamli tafovut (axborot tengsizligi);
- axborot madaniyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- raqamli nazorat va shaxs erkinligi o'rtasidagi muvozanat muammosi.

Axborot xavfsizligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. U ontologik (axborotning mavjudligi), epistemologik (bilimning ishonchligi) va aksiologik (qadriyatlar va erkinliklar) o'lchovlarda namoyon bo'ladi.

#### **Xulosa**

Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni axborotlashgan sivilizatsiyaga o'tishning muhim bosqichi bo'lib, milliy modelni shakllantirish uchun mustahkam asos yaratmoqda. O'zbekistonda axborotlashuv modeli mintaqadagi eng izchil rivojlanayotgan tizimlardan biri hisoblanadi. Uning ustun jihatlari sifatida davlat siyosatining tizimliliigi, jamiyatning moslashuvchanligi, ta'lim tizimining raqamlashtirilishi va tarmoq iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ko'rsatish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008. – B. 79.
2. Hojiahmedov A. Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari. – T.: Akademiya, 2019. – B. 133.
3. Abdullaev R. Axborot madaniyati va jamiyat. – T.: O'zMU nashriyoti, 2017. – B. 223.
4. Erkaev A. Ijtimoiy ong va axborotlashuv. – T.: Yangi asr avlodi, 2020. – B. 173.
5. Rustamov A. Mafkuraviy jarayonlar va axborot siyosati. – T.: Sharq, 1998. – B. 56.
6. Castells M. The rise of the network society. – Oxford: Blackwell, 2010. – P. 325.
7. Qayumov Sh. Ma'naviyat va axborot maydoni. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 92.
8. Toffler A. The third wave. – New York: Bantam, 1980. – P. 245.